



AVITAMINOZ PP. PELLAGRA KASALLIGI

Norimov Azimjon Qaxramon o'g'li
Xidirnazarov Muhammad Kamol o'g'li

Samarqand davlat tibbiyot universiteti 1-son davolash ishi fakulteti 216, 219-guruh talabalari

Ilmiy rahbar: v.b.dotsent

Kiyamova Dilfuza Sharifovna

Samarqand davlat tibbiyot universiteti tibbiy kimyo kafedrası

Annotasiya: Avitaminoz- organizmda vitaminlar yetishmasligi natijasida paydo bo'ladigan kasallik.

Kalit so'zlar: Avitaminoz, Pellagra, Nikotin kislotasi

Maqsad: Vitaminlar hayot faoliyati uchun muhim ahamiyatga ega. Buni hozir vitamin PP misolida ko'rib chiqamiz.

Izlanishlar natijalari: Pellagra avitaminoz PP —organizmda vitamin PP (nikotin kislotasi) yetishmasligidan kelib chiqadigan kasallik. PP-vitami inson organizmda muhim a'zolar tizimi faoliyatida ishtirok etadi. Jumladan hazm, yurak-qon, gormon tizimida. Bu vitamin -nikotin kislotasi piridin 3-karbon kislota bolib, suvda oz eruvchi, rangsiz, kristal modda hisoblanadi. Inson organizmda bu vitaminga bolgan ehtiyoj 20-30 mg. Bu vitamin yetishmasligidan me'da-ichak kasalliklari, ateroskleroz va boshqa kasalliklarni keltirib chiqaradi. Eng asosiysi Pellagra kasalligini keltirib chiqaradi. Bu kasalikda erta oldini olinsa, bemor tuzalib ketadi. Ammo kasalikni keyingi davrlarida bu o'lim bilan tugashi ham mumkin. Pellagrada ich ketadi, til qipqizarib, yaltirab turadi. Gavdaning ochiq qismlari va oyoq-qo'l panjasiga qizil dog'lar tushib, ular keyinchalik pufakchalarga aylanib, yiring boylaydi. Pufakchalar yorilib, yiring chiqib ketgach, teri qurib, pust tashlaydi va o'rni dog' bo'lib qoladi. Bemor tinkasi qurishi, tez charchash, quvvatsizlik, ish qobiliyatining pasayishi, bosh og'rishi, ishtahasi yo'qligi, og'zi achishib, so'lagi oqishidan shikoyat qiladi. Ruhii holati ham buziladi. Atrofidagi voqea va hodisalarga beparvo bo'lib qoladi, xotira va aklning pasayishi kuzatiladi.

Kasallikni davolashda vrach ko'rsatma-siga binoan, V guruh vitaminlari bilan nikotin kislotasi beriladi. Nikotin kislotasiga boy ovqatlar — qayvon oqsili, jigar, tuxum, baliq, sut, qatiq, sabzavot va mevalar buyuriladi.

Xulosa: Shunday qilib, PP- vitamini organizmda yetarlicha saqlash ya'ni sog'lom hayot tarzini kechirish har xil kasalliklarni oldini olinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Biologik kimyo Sobirova.R.A



2. Yusupova S. S., Kholmurodova D. K., Kiyamova D. S. Vexibia Alopecroides-How to New Source for the Synthesis of Physiologically Active Substances Used in Medicine //Global Scientific Review. – 2023. – Т. 20. – С. 25-30.

3. Vexibia Alopecroides - How to New Source for the Synthesis of Physiologically Active Substances Used in Medicine. Global Scientific Review 2023 Volume 20, October 2023.

4. Выделение и установление строения физиологически активных препаратов из растения семейства fabaceae. Илмий ахборотнома 2022-йил, 3-сон (133) С76-80.

5. Холмуродова Д.К Пути и методы получения порфиринов. International Journal of Education, Social Science. Volume-11|22-10-2023

6. Yusupova S.S. Holmurodova D.K. Kiyamova D.Sh. A New Source Of Biologically Active Substances Used In The National Economy And Medicine The american journal of medical sciences and pharmaceutical research 2020

7. С.С Юсупова, Д.К Холмуродова Лечебные свойства флавоноидов
Биотехнология и биомедицинская инженерия, 2022 стр 255-256